



SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA NEMIS TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MODELI

Komilov Furqat Solijon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Chet tillarni, xususan, nemis tilini o'qitishda SI texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlarini, til o'rganuvchilarning fonetik kompetensiyalarini rivojlantirishda ham ko'rishimiz mumkin. Unga asoslangan fonetik modullar chet tildagi talaffuzni aniqlik bilan tahlil qilishi, bu sohadagi xatolarni segmentlab ko'rsatib berishi, shu bilan birga til o'rganuvchiga individual fonetik mashqlarni taklif qilishi bilan xarakterli deyishimiz mumkin. Bu jarayonda nutq tovushlarining chastota spektri; intonatsiya konturi; urg'u va pauza dinamikasi; artikulyatsion kabi xatolar aniqlanadi. Ma'lumki, nemis tilida o'zbek tilidan farqli ravishda umlautlar, diftonglar mavjud. Ularning va so'z urg'usining semantik vazifasi sun'iy intellekt tomonidan avtomatik qayd etilishi mumkin va bu ularning fonetik kompetensiyani sezilarli darajada o'shishiga olib keladi. Fonetik kompetensiyaning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi esa, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt yordamida, til o'rganuvchilarning barcha kompetensiyalarini samarali rivojlantirish mumkin, xususan, leksik kompetensiyani ham. Sun'iy intellekt algoritmlari til o'rganuvchi egallagan individual leksik minimumni tahlil qiladi; uning nutqida kam yoki ko'p qo'llanilayotgan so'zlarni aniqlaydi; sinonimik, antonimik va kollokatsion tarmoqlarni avtomatik quradi; real kontekst bo'yicha til o'rganuvchining bilim darajasiga mos mashqlar yaratadi. Bu jarayon esa mental leksikonni faollashtirish, shu bilan birga yangi so'zlarni chuqurroq o'zlashtirishga imkon beradi.

Sun'iy intellekt yordamida rivojlantirilishi mumkin bo'lgan yana bir muhim kompetensiya bu - grammatik kompetensiya hisoblanadi. Uning yordamida til o'rganuvchi tomonidan qo'llanilayotgan grammatik strukturalarning qiyinchilik darajasini aniqlanadi; morfosintaktik xatolar segmentlanadi; xatolarning kelib chiqish sabablari izohlanadi; qayta-qayta mashq qilish uchun mos grammatik "drill" va kommunikativ mashqlarni yaratiladi. Bu jarayonda sun'iy intellekt (SI) grammatikani faqat qoidalar majmui sifatida emas, balki kontekst asosidagi mazmunli tizim sifatida ko'rsatishi bilan ajralib turishini ta'kidlash maqsadga muvofiq.

Sun'iy intellektni nemis tili darslari jarayoniga integratsiyalashda quyidagicha didaktik modeldan foydalanish mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalarining chet tillarini, xususan, nemis tilini o'qitish tizimiga integratsiyasi, nafaqat metodik vositalarning modernizatsiyasini, balki til o'rgatish jarayonining tubdan qayta ko'rib chiqilishini talab qilayotganini guvohi bo'lib turibmiz. Nemis tilini o'rgatish



maqsadida ishlab chiqilayotgan sun'iy intellektga asoslangan didaktik model nemis tilini o'rgatish va o'rganish jarayonining barcha bosqichlarini, xususan, diagnostika qilish, qadamlarni rejalashtirish, mos mashq va topshiriqlarni tayyorlash, natijalarni monitoring qilish, refleksiya va baholash jarayonlarini qamrab oladi.

Bu modelning markazida esa til o'rganuvchi markazlashgan o'qitish ta'lim konsepsiyasi turadi. Sun'iy intellekt har bir til o'rganuvchining bilish faoliyati, xatoga yo'l qo'yish holatlarini, o'rganish tezligi, leksik va grammatik imkoniyatlari haqida ma'lumotlarni qayta ishlay oladi va ularni o'quv jarayonini individual ko'rsatkichlarga qarab moslashtirish imkoniyatiga ega. Buning natijasida esa, til o'rganuvchi o'zining ehtiyojlari, qiyinchiliklari hamda qiziqishlari asosida yaratilgan individual traektoriya bo'yicha til o'rganadi.

Har bir didaktik model o'zining tamoyillariga ega bo'ladi. Quyida nemis tilini o'qitishda sun'iy intellekt (SI) ga asoslangan didaktik modelning tamoyillariga to'xtalib o'tmoqchimiz:

Birinchi tamoyil adaptivlik tamoyili bo'lib, u o'quv materialining til o'rganuvchining til bilish darajasiga mos ravishda avtomatik o'zgarib borishini anglatadi.

Ikkinchi tamoyil esa interaktivlik tamoyili hisoblanib, til o'rganuvchi bilan real vaqt muloqoti, javoblarning tezkor fidbek orqali tahlil qilinishiga asoslanadi.

Uchinchi tamoyil metakognitiv qo'llab-quvvatlash tamoyili bo'lib, bunda til o'rganuvchining o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish ko'nikmasiga ega ekanligi, o'z xatolarining kelib chiqish sababini tushuna olishi va ularni to'g'ri strategiyalarni tanlagan holda bartaraf eta olishini anglatadi.

So'nggi tamoyil kommunikativ yo'naltirilganlik tamoyili bo'lib, unda til o'rganuvchi tayyor modellar bilan simulyativ muloqotga kirishishi, real suhbat kontekstlariga tayyorlanishi tushuniladi.

Ushbu didaktik model faqat til o'rganuvchining til kompetensiyasini rivojlantiribgina qolmay, chet til o'qituvchisining metodik qarorlarini ham ilmiy asoslashga imkon beradi. Sun'iy intellekt (SI) tomonidan ishlab chiqilgan tahlillar o'qituvchiga sinf yoki guruhdagi umumiy an'analar, murakkab mavzular, tipik xatolar hamda til o'rganuvchining rivojlanish tezligi haqidagi aniq ma'lumot bera olishi bilan xarakterlanadi.

Sun'iy intellektning chet til o'qituvchisi va til o'rganuvchilar hayotiga kirib kelishi ularning ta'lim jarayonidagi rollarining ham o'zgarishiga, yangi shaklga kirishiga sabab bo'ldi. Uni o'qituvchi faoliyatidagi transformatsiya deb atash mumkin. Chunki raqamli didaktika sharoitida o'qituvchi endi faqat axborot yetkazuvchi bo'lib qolmay, balki metodik dizayner, dars jarayonini boshqaruvchi, refleksiya jarayonining tashabbuskori sifatida namoyon bo'lishiga sharoit yaratib berdi. U o'qituvchilarni bir qancha texnik vazifalardan ozod qilganini, ularning kasbiy faoliyatini yuqori metodik darajaga olish chiqishga sabab bo'layotganini ta'kidlash lozim. Aytishimiz mumkinki,



uning yordamida o'qituvchilarning roli SI tomonidan ishlab chiqilgan diagnostik ma'lumotlarni talabalarning individual qiyinchiliklarini aniqlash, mashg'ulotlarda xatolar korpusi asosida reflektiv mashqlar tashkil etish, til o'rganuvchilarning nutqiy faoliyatida kuzatilgan kamchiliklarni chuqur tahlil qilish, metakognitiv strategiyalarni o'rgatish bilan boyiydi. Natijada esa, o'qituvchilar yangi "mentor-fasilitator" darajasiga ko'tarilib, til o'rganuvchilarning mustaqil hamda ongli o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlay boshladilar.

Sun'iy intellektning til o'rganuvchilar uchun keltirgan o'zgarishlarini ham ta'kidlash lozim. Xususan, u til o'rganuvchilarni amaldagi "axborotni qabul qiluvchi" rolidan, o'z o'rganish jarayonini boshqaruvchi faol subyekt, reflektiv tahlilchi, ijodiy yechimlar ishlab chiquvchi, interaktiv muloqot qiluvchi til o'rganuvchi sifatida shakllanishlariga imkoniyat yaratmoqda. Til o'rganuvchilar talaffuzini chat-bot suhbatdosh bilan mashq qilish yordamida yaxshilash, yozma ishlarini avtomatik tahrir qilish hamda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash, ularning sabablarini o'rgangan holda, to'g'ri variantlarni tanlay olish; murakkab grammatik strukturalarni kontekst orqali o'rganish; o'z rivojlanish jarayonini grafiklar va tahlillar orqali monitoring qilish; til materialini qayta ishlash strategiyalarini ongli ravishda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa ularning metakognitiv, kommunikativ kompetensiyalarini, yod olish, esa saqlash jarayonlari, o'z o'rganish jarayonini nazorat qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Quyida esa sun'iy intellekt (SI) asosidagi o'qitish jarayonining bosqichlariga batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz:

Dastlabki bosqich diagnostika bosqichi hisoblanadi. Bu bosqich dars jarayonining boshlanishida sun'iy intellekt yordamida til o'rganuvchilar egallagan bilimlarini chuqur diagnostika qilinadi. Fonetik, leksik, grammatik, pragmatik hamda kommunikativ kompetensiyalarning darajasi sun'iy intellekt yordamida maqsadli ravishda ravishda tahlil qilinadi. Xususan, tizim til o'rganuvchining talaffuzidagi xatoliklarni aniqlaydi, lug'at boyligining qay darajada boy ekanligini o'lchaydi, grammatik strukturalarning qo'llanishidagi kamchiliklarni qidirib topadi hamda eng ko'p uchraydigan xatolarni statistik tarzda guruhlaydi. Buning natijasida har bir til o'rganuvchi uchun individual rivojlanish profilini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Keyingi bosqich rejalashtirish bosqichi bo'lib, aniqlangan diagnostika natijalariga asoslangan holda, sun'iy intellekt til o'rganuvchining ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib moslashtirilgan o'quv rejasini avtomatik yaratib beradi. Bu rejada qiyinchilik tug'dirgan mavzular, takrorlanishi zarur bo'lgan leksik birliklar, mustahkamlashga ehtiyoj sezilgan grammatik modelllar va fonetik segmentlar belgilanadi. Natijada, ta'lim jarayoni til o'rganuvchining real bilim darajasiga mos ravishda tuziladi.



Uchinchi bosqich mashq qilish bosqichi hisoblanib, sun'iy intellekt til o'rganuvchilarning mashq qilish, topshiriqlarni bajarish jarayonida til ko'nikmalarini faollashtirish uchun turli adaptiv mashq va topshiriqlarni taklif etadi. Talaffuzni yaxshilashda audiovizual tahlil, so'z boyligini oshirish uchun kontekstual simulyatsiyalar, grammatika uchun esa moslashtirilgan drill mashqlari yaratiladi. Barcha mashq va topshiriqlar real vaqt rejimida yangilanib boradi hamda til o'rganuvchining javoblariga qarab murakkablik darajasi ham ortib yoki kamayib boradi.

Bu jarayondagi keying muhim bosqich monitoring bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda sun'iy intellekt (SI) mashq va topshiriqlar jarayonida til o'rganuvchining barcha javoblarini qayd qiladi, ularning to'g'rilik darajasini tahlil qiladi, xatolar dinamikasi va o'zgarish tezligini grafik ko'rinishda qaytarib beradi. Monitoring jarayoni til o'rganuvchining rivojlanishini doimiy kuzatish, kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlash va o'qituvchi uchun strategik tavsiyalar tayyorlash imkoniyatini yaratib beradi.

Keyingi bosqich refleksiya bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda sun'iy intellekt (SI) til o'rganuvchini o'z o'rganish faoliyati haqida fikr yuritishga, xatolarning kelib chiqish sabablarini aniqlashga, to'g'ri strategiyani tanlashga undaydi. Til o'rganuvchi o'z qiyinchiliklarini ongli ravishda tahlil qiladi, shu bilan birga mustaqil bilim olish jarayoniga faolroq jalb etiladi. Bu bosqich til o'rganuvchida metakognitiv kompetensiyaning shakllanishiga bevosita xizmat qiladi.

So'nggi bosqich baholash bosqichi bo'lib, bu bosqichda sun'iy intellekt (SI) til o'rganuvchining o'zlashtirish darajasini barcha ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlab beradi. Sun'iy intellekt an'anaviy baholashdan farq qiladi, chunki unda jarayoniy baholashni amalga oshiradi; faqat yakuniy natija emas, balki rivojlanish trendlarini ko'rsatadi; individual tavsiyalar beradi; til kompetensiyalarini integrativ tahlil qiladi. Buning natijasida, baholash adolatli, shaffof va motivatsion xarakter kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (SI) asosida qurilgan didaktik model nemis tilini o'rgatish va o'rganishda yuqori samaradorlik beradi. Diagnostika, rejalashtirish, mashq qilish, monitoring, refleksiya va baholash jarayonlarining integratsiyalashganligi ta'limni tizimli, shaffof va ilmiy asoslangan holga keltiradi. Buning natijasida, chet til o'qituvchisida darsni aniq pedagogik maqsadlarga yo'naltirish, til o'rganuvchilarda esa mustaqil o'rganish madaniyati, til materialini ongli qayta ishlash, xatolarni chuqur tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish imkoniyati oshadi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt (SI) ning ta'lim jarayonidagi metodik roli nafaqat texnologik innovatsiya sifatida, balki nemis tilini o'qitishning nazariy-metodik asoslarini rivojlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt (SI)ga asoslangan didaktik ta'lim modeli kelajakda raqamli didaktika tamoyillariga mos holda yanada takomillashib, til o'rganuvchi va chet til o'qituvchisi hamkorligida



sifatli, individual, refleksiv va samarali ta'lim muhitini yaratishga xizmat qilishi shunhasiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Hymes D. On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 269–293-b.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches. Applied Linguistics, 1980. – 1(1), 1–47-b.
3. Bachman L. Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford: OUP, 1990. – 84–120-b.
4. Passov E. Kommunikativ metodika. Moskva: Prosveshchenie, 2002. – 45–78-b.
5. Sobirov A. Kommunikativ kompetensiya va metakognitiv refleksiya. Toshkent, 2020. – 56–89-b.